

Mamlakatda iqtisodiy konsentratsiya ustidan davlat nazorat

LUQMANOV SHARIFXON A'ZAM O'G'LI

O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar

huquqlarini himoya qilish qo'mitasi,

mutaxassis

+998 93 355 97 74

Annotatsiya. Ushbu tezesda, iqtisodiy konsentratsiya ustidan davlat nazorat qilishning yondashuvlari haqida ma'lumot beradi. Tezesda, empirik tahlil va nazariy qarashlarni o'z ichiga olgan tartibda birlashish va qo'shib olinishlarning raqobatga ta'sirini baholash keng ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: aksiyalarni (ulushlarni) olish bo'yicha bitim, bitim ishtirokchilari, investor, iqtisodiy konsentratsiya, qo'shib yuborish va qo'shib olish bo'yicha bitim, xo'jalik yurutuvchi subyekt, tartibga solish usullari, tartibga solish mexanizmlari

Iqtisodiy kontsentratsiyalar ustidan davlat nazorati turli mexanizmlar, jumladan, monopoliyaga qarshi qonunlar, nazorat qiluvchi idoralar, asosiy tarmoqlarga bevosita egalik qilish yoki nazorat qilish orqali amalga oshirilishi mumkin. Ushbu chora-tadbirlar raqobatni rivojlantirish, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va ustun mavqega ega xo'jalik yurutuvchi subyektlar tomonidan ustun mavqeni suiiste'mol qilishning oldini olishga qaratilgan.

Shuni ta'kidlash kerakki, davlatning iqtisodiy konsentratsiyani nazorat qilish darajasi vaqt o'tishi bilan o'zgarishi va siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar ta'sirida bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, davlat nazorati chora-tadbirlari samaradorligi me'yoriy-huquqiy bazaning ijro etish qobiliyati va shaffofligiga qarab o'zgarishi mumkin.

Bugungi O'zbekiston Republikasida iqtisodiy kosentratsiyalarni nazorat qiluvchi organ Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya

qilish qo‘mitasi hisoblanadi. Ushbu soha 03.07.2023-yildagi 850-sonli O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risidagi” qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 1-maydagi 256-son qarori tasdiqlangan “Iqtisodiy konsentratsiyani amalga oshirish uchun oldindan rozilik olish tartibi to‘g‘risida” nizomi hamda boshqa normativ huquqiy hujjatlar yordamida tartibga solinadi.

“Raqobat to‘g‘risidagi” qonunning 26-moddasiga ko‘ra iqtisodiy konsentratsiya ustidan davlat nazorati iqtisodiy konsentratsiyaga oldindan rozilik berish orqali vakolatli davlat organi tomonidan quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

xo‘jalik yurituvchi subyektni qo‘shib olish yoki qo‘shib yuborish orqali qayta tashkil etishda; shaxs yoki shaxslar guruhi O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatga olingan aksiyadorlik jamiyati ovoz beruvchi aksiyalarining 25 foizidan ortig‘ini tasarruf etish yoxud mas’uliyati cheklangan jamiyatning yoki qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarning uchdan bir qismidan ortig‘ini tasarruf etish huquqini olganda.

Agar ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan bitimlarda ishtirok etayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlardan biri aktivlarining balans qiymati yoki oxirgi kalendar yilda tovarlarni realizatsiya qilishdan olingan tushumi bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz ellik ming baravari miqdoridan ortiq yoxud ularning aktivlarining jami balans qiymati yoki oxirgi kalendar yilda tovarlarni realizatsiya qilishdan olingan jami tushumi bazaviy hisoblash miqdorining besh yuz ming baravari miqdoridan ortiq bo‘lsa, iqtisodiy konsentratsiya ustidan davlat nazorati amalga oshiriladi.

Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risidagi qonunchilik iqtisodiy konsentratsiyaga vakolatli davlat organining oldindan rozilagini olish bilan bog‘liq munosabatlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Ushbu moddaning talablari quyidagilarga nisbatan tatbiq etilmaydi: davlat ishtirokidagi korxonalarining qo‘shib yuborilishiga yoki qo‘shib olinishiga yoxud ularning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalarining (ulushlarning) olinishiga doir bitimlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga binoan

amalga oshirilgan hollarga; xo‘jalik yurituvchi subyektni tashkil etish chog‘ida uning muassislariga; xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) o‘z aksiyalarini (ulushlarini) olishga doir bitimlarga; aksiyadorlik jamiyati (mas’uliyati cheklangan jamiyat yoki qo‘srimcha mas’uliyatli jamiyat) o‘z ustav fondining (ustav kapitalining) miqdorini saqlab qolgan holda boshqa tashkiliy-huquqiy shaklga o‘zgartirilishiga; aksiyalar (ulushlar) keyinchalik qayta sotish maqsadida investitsiya vositachilari tomonidan olinishiga; xo‘jalik yurituvchi subyektning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalarni (ulushlarni) jismoniy shaxs tomonidan olishga doir bitimlarga, agar ariza bilan murojaat etilgan paytda bunday jismoniy shaxs biron-bir xo‘jalik yurituvchi subyektning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalarning (ulushlarning) 25 foizidan ko‘prog‘ini tasarruf etmagan bo‘lsa.

Iqtisodiy konsentratsiya bo‘yicha monopoliyaga qarshi organning oldindan roziligi quyidagi shartlardan biri mavjud bo‘lganda olinadi: agar xo‘jalik yurituvchi subyektlardan biri aktivlarining balans qiymati yoki oxirgi kalendor yilda tovarlarni realizatsiya qilishdan olingan tushumi bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz ellik ming baravari miqdoridan ortiq bo‘lsa; agar bitimlar ishtirokchilari aktivlarining jami balans qiymati yoki oxirgi kalendor yilda tovarlarni realizatsiya qilishdan olingan jami tushumi bazaviy hisoblash miqdorining besh yuz ming baravari miqdoridan ortiq bo‘lsa.

Monopoliyaga qarshi organ iqtisodiy konsentratsiyaga oldindan rozilik berishni quyidagi hollarda rad etadi: harakatlarni sodir etishga (bitimlar tuzishga) oldindan rozilik berish to‘g‘risidagi murojaatning qanoatlantirilishi tovar yoki moliya bozorida tegishli xo‘jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining ustun mavqeyi yuzaga kelishiga yoki kuchayishiga va (yoki) raqobatning cheklanishiga olib kelishi mumkin bo‘lsa; taqdim etilgan hujjatlarda noto‘g‘ri yoki buzib ko‘rsatilgan ma’lumotlarning mavjudligi aniqlansa.

Aksiyalarni (ulushlarni) olish bo‘yicha bitimlarga oldindan rozilik olish bo‘yicha arizani boshqa asoslarga ko‘ra rad etish qat’iyan taqiqlanadi.

Bu chora-tadbirlar davlat tomonidan iqtisodiy kontsentratsiyani nazorat qilish, raqobatni qo'llab-quvvatlash va bozor muvozanatini ta'minlash uchun qo'llaniladigan vositalardan biridir. Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirishda davlat organi raqobatga to'sqinlik qilmaslik, oshkoraliq vaadolat tamoyillariga umuman amal qiladi. Bunday nazorat mexanizmlari davlat tomonidan iqtisodiy faoliyatni tartibga solish va bozor kuchlarini muvozanatlash uchun qo'llaniladigan yondashuvdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi ma'lumotlari.
2. <https://lex.uz/>